

BIZNES JARAYONLARNING LOGISTIKA AUTSORSINGI

Uzaqov Ortik Shaymardanovich

Qarshi davlat texnika universiteti
“Optik aloqa tizimlari va tarmoqlari”

kafedrası dotsenti, i.f.f.d.(PhD)

E-mail:uzaqovortiq@gmail.com

Annotatsiya

Biznes jarayonlar autsorsingi (BPO – Business Process Outsourcing) korxonalar va tashkilotlarning logistika hamda ta’minot zanjiri bilan bog‘liq funksiyalarini tashqi provayderlarga topshirish amaliyotini anglatadi. Ushbu maqolada BPO tushunchasi, uning maqsad va vazifalari, amaliy ahamiyati, afzalliklari hamda xavf-xatar jihatlari keng yoritiladi. Shuningdek, global logistika va ta’minot zanjirini boshqarishda innovatsion texnologiyalar va raqamli yechimlarning roli, biznes jarayonlarini optimallashtirish hamda samaradorlikni oshirish imkoniyatlari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: business process outsourcing, logistika, ta’minot zanjiri, tashqi provayderlar, raqamli texnologiyalar, global logistika, innovatsion yechimlar, Big Data, sun’iy intellekt, IoT.

Аннотация

Аутсорсинг бизнес-процессов (BPO – Business Process Outsourcing) подразумевает передачу функций, связанных с логистикой и цепочками поставок, внешним провайдерам. В статье рассматриваются понятие BPO, его цели и задачи, практическая значимость, преимущества и возможные риски. Особое внимание уделено роли инновационных технологий и цифровых решений в управлении глобальной логистикой и цепочками поставок, а также возможностям оптимизации бизнес-процессов и повышения их эффективности.

Ключевые слова: Аутсорсинг бизнес-процессов, логистика, цепочка поставок, внешние поставщики, цифровые технологии, глобальная логистика, инновационные решения, большие данные, искусственный интеллект, IoT.

Abstract

Business Process Outsourcing (BPO) refers to the practice of delegating logistics and supply chain-related functions to external providers. This article explores the concept of BPO, its objectives, practical significance, advantages, and potential risks. Particular emphasis is placed on the role of innovative technologies and digital solutions in managing global logistics and supply chains, as well as the opportunities for optimizing business processes and improving operational efficiency.

Keywords: Business process outsourcing, logistics, supply chain, external providers, digital technologies, global logistics, innovative solutions, Big data, artificial intelligence, IoT.

KIRISH

Global biznes amaliyotida kompaniyalar o‘z faoliyatini samarali boshqarish va raqobatbardoshligini oshirish uchun turli xil strategiyalarni ishlab chiqishi talab etiladi. Logistika va ta’minot zanjiri jarayonlarini tashqi provayderlarga autsorsing qilish

ko‘plab kompaniyalar tomonidan keng qo‘llanilmoqda. Bu jarayon tashkilotlarga o‘z biznes faoliyatini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish, samaradorlikni oshirish va internet bozorlar bilan integratsiyalashish imkoniyatlarini taqdim etadi. BPO logistikasi biznesni global miqyosda boshqarishning yangi va samarali usuliga aylangan.

Ushbu strategiya orqali kompaniyalar o‘zlarini asosiy faoliyatga yo‘naltirib, logistika kabi qo‘shimcha va muhim jarayonlarni tashqi mutaxassislariga topshiradi. Bu esa logistika jarayonlarini yanada samarali, tezkor va arzon bajarishga olib keladi. BPO logistikasi bilan bog‘liq ba‘zi xavf-xatarlar ham mavjud, chunki bu jarayonni tashqi provayderlarga topshirish kompaniya boshqaruvi darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin. Biroq raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlar yordamida bu xavflarni minimallashtirish mumkin. Biznes jarayonlarning logistika outsorsingi haqida kengroq tushuncha berish va uning istiqbollari haqida batafsil ma‘lumot taqdim etish ushbu maqolaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy masalalar va vazifalarni hal etishda raqamlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyatini inobatga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi, “O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari qabul qilingan bo‘lib, bu hujjatlar korxonalarda logistika axborot tizimlarini (AKT) keng joriy etishga huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda [1],[2],[3],[4].

Korxonalar ishlab chiqarish jarayonlariga logistika axborot tizimlarini joriy qilish murakkab jarayon bo‘lib, ishlab chiqarishni boshqarish, savdoni boshqarish, mahsulotlarni yetkazib berish, kadrlarni joy-joyiga qo‘yish kabi dolzarb muammolarni hal etishda biznes jarayonlarning logistika outsorsingidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Axborotlashgan jamiyatni shakllantirish, AKTdan milliy iqtisodiyotimizning turli sohalarida foydalanish muammolari yetakchi iqtisodchi olimlar va mutaxassislar, iqtisodiy informatika va avtomatlashtirilgan boshqaruv axborot tizimlari sohasidagi bir qator ilmiy qarashlarda o‘z aksini topgan. Xususan, iqtisodiy informatika va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari yo‘nalishidagi taniqli olimlardan biri S.S. G‘ulomov tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida AKTdan foydalanish va uni joriy etish samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. B.A. Begalov esa AKTning shakllanishi, texnologik asoslari, jahonda va O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi hamda korxonalarda AKTni joriy etish muammolari va yechimlarini ilmiy jihatdan keng ko‘rib chiqqan [5].

Sh.G'. Odilovning ilmiy ishlarida kompaniya logistik jarayonlarini AKT asosida takomillashtirish bo'yicha yondashuvlar va takliflar ilgari surilgan [6].

V.A. Medvedev va A.S. Prisyajnyuklar logistika operatsiyalari bilan bog'liq asosiy axborot jarayonlariga quyidagilarni kiritadi: mahsulotlar assortimenti, tashuvchilar, yuk jo'natuvchilar va qabul qiluvchilar, yo'nalishlar, tariflar, normativ-huquqiy baza hamda boshqa biznes ma'lumotlari bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini yuritish va yangilash, elektron xaritalar, joylashuvni aniqlash va navigatsiya tizimlarini qo'llab-quvvatlash orqali yuk monitoringi, buyurtmani amalga oshirish jarayonidagi nazorat, yuklashni optimallashtirish va boshqa bosqichlar, boshqa dasturiy ilovalardan ma'lumotlarni import-eksport qilish, tahlil qilish, tashish uchun buyurtmalarni qabul qilish va qayta ishlash, mijozlar, hamkorlar va xodimlarga buyurtma borishi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish imkoniyatlarini yaratish. Ular ushbu yondashuv va takliflarini logistika axborot tizimlariga oid o'quv qo'llanmalarida bayon etgan [7].

V.I. Sergeevga ko'ra, logistika axborot tizimlari logistikaning ajralmas qismi bo'lib, moddiy oqimlarga hamroh bo'luvchi axborot oqimlarini tashkil qiladi. Olimlar axborot logistikasini — korxonaga mahsulotni yetkazib berish, uni yaratish va sotish o'rtasidagi axborot bog'liqligi sifatida belgilaydi. Bu yondashuvlar ham biznes-logistika bo'yicha o'quv qo'llanmalarda keltirilgan [8].

Kallahan o'z tadqiqotlarida biznes jarayonlari logistikasi outsorsingi va uning global biznesdagi ahamiyati haqida batafsil tushuncha beradi. U biznes jarayonlari logistikasi outsorsingi orqali korxonalar qanday qilib o'z jarayonlarini optimallashtirishlari, xarajatlarni kamaytirishlari, xizmatlar sifatini oshirishlari va bozorning o'zgaruvchan talablariga tezkor javob berish imkoniyatiga ega bo'lishlarini ko'rsatadi. Tashqi provayderlar bilan hamkorlik qilishda yuzaga keladigan xavf-xatarlar va ularni bartaraf etish yo'llari ham muhokama qilingan.

Hossain esa biznes jarayonlari logistikasi outsorsingi va ta'minot zanjirining global miqyosdagi o'rnini chuqur tahlil qiladi. U outsorsing va offshoring jarayonlarining global biznes boshqaruviga qanday ta'sir qilayotganini o'rganadi. Muallif, BPO logistikasi orqali kompaniyalar qanday qilib yangi bozorlarni egallashi, mavjud resurslardan maksimal darajada foydalanishi va raqobatbardoshlikka erishishi mumkinligini yoritadi. Shuningdek, global raqobat va iqtisodiy o'zgarishlar ta'sirida BPO logistikasi qanday yangi tendensiyalarni shakllantirayotgani ham tahlil qilinadi.

Sharma o'z ilmiy maqolasida texnologiyaning biznes jarayonlari logistikasi outsorsingi sohasiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini tadqiq etadi. U raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt (SI), Internet vositalari (*IoT – Internet of Things*, ya'ni bir-biri yoki tashqi muhit bilan o'zaro aloqa qilish uchun texnologiyalar bilan jihozlangan jismoniy obyektlar tarmog'i), shuningdek, blokcheyn (*blockchain* – barcha uchun ochiq va o'zgarmas ma'lumotlar bazasi) kabi zamonaviy texnologiyalarning BPO logistikasi jarayonlariga joriy qilinishi orqali qanday ustunliklar hosil bo'lishini muhokama qiladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot olib borish davomida monografik, ekspert va tizimli tahlil usullaridan foydalangan holda korxonalarda logistika axborot tizimlarini joriy qilish bo'yicha quyidagi yo'nalishlar o'rganildi: logistika operatsiyalarini amalga oshirish, korxonalar harakatlarining asosiy yo'nalishlari, logistika axborot tizimlarini shakllantirish va boshqarish jarayonlari, ularning faoliyatidagi iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish hamda logistika axborot tizimi jarayonlarini samarali tashkil etish bilan bog'liq muammolar aniqlanib, ular bo'yicha samarali yechimlar ishlab chiqildi va amaliy takliflar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Biznes jarayonlari *outsorsingi (Business Process Outsourcing)* — bu kompaniyalar tomonidan ba'zi biznes jarayonlarni, masalan, hisob-kitoblar, kadrlar tizimi, axborot texnologiyalari va logistika kabi sohalarni tashqi provayderlarga topshirish jarayonidir. Biznes jarayonlari logistikasi *outsorsingi* esa aynan logistika va ta'minot zanjiri jarayonlarini tashqi mutaxassislariga topshirishni anglatadi.

Logistika — bu materiallarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchigacha yetkazib berish, saqlash, inventarizatsiya qilish va tarqatish bilan bog'liq barcha jarayonlarni o'z ichiga oladi. Biznes jarayonlari logistikasi *outsorsingi* orqali kompaniyalar ushbu jarayonlarni tashqi provayderlarga topshiradi, bu esa ichki operatsiyalarni yengillashtirib, samaradorlikni oshiradi.

Biznes jarayonlari logistikasi *outsorsingi* kompaniyalar uchun bir nechta asosiy afzalliklarni taqdim etadi:

Xarajatlarni kamaytirish. Logistika jarayonlarini *outsorsing* qilish orqali kompaniyalar ishchi kuchi va infratuzilma xarajatlarini qisqartiradi. Tashqi provayderlar odatda yirik miqyosda ish olib boradi, bu esa ularning xizmatlarini iqtisodiy jihatdan arzonroq qiladi.

Resurslardan samarali foydalanish. Kompaniyalar o'z vaqt va resurslarini asosiy faoliyatga yo'naltiradi. Logistika vazifalarini tashqi mutaxassislariga topshirib, ular o'z e'tiborini strategik rivojlanishga qaratadi.

Tezkorlik va samaradorlik. Tashqi provayderlar tajribali va malakali bo'lib, ularning xizmatlari tez va sifatli bajariladi. Bu mahsulotlarni tezroq yetkazib berish imkonini yaratadi.

Innovatsion texnologiyalar. *Outsorsing* provayderlari o'z xizmatlarida eng yangi texnologiyalarni joriy qiladi. Bu raqamli tizimlar, avtomatlashtirish va ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatlari orqali logistika jarayonlarini samarali boshqarishga yordam beradi.

Risklarni kamaytirish. Tashqi provayderlarga *outsorsing* qilish ta'minot zanjiri va logistika bilan bog'liq xavflarni kamaytiradi. Bunday provayderlar o'z sohasida tajribaga ega bo'lib, yuzaga keladigan muammolarni hal qilish bo'yicha malakaga ega hisoblanadi.


Texnologiya va raqamli yechimlar biznes jarayonlari logistikasi *outsorsingini* yanada samarali qilishda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda logistika kompaniyalari

Big Data, IoT (*Internet of Things*), sun'iy intellekt (SI) va blokcheyn kabi innovatsion texnologiyalarni faol joriy etmoqda. Jumladan:

- Big Data yordamida kompaniyalar katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib, ta'minot zanjirining har bir bosqichini optimallashtirishi mumkin;
- IoT qurilmalari orqali mahsulotlar va resurslarning holatini real vaqt rejimida kuzatish mumkin;
- Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish yordamida jarayonlar tezlashtiriladi va inson xatolari kamaytiriladi;
- Blokcheyn texnologiyasi logistika jarayonlarida ma'lumotlarning xavfsizligi va shaffofligini ta'minlaydi.

Biznes jarayonlari logistikasi outsorsingi bugungi global biznes muhitida katta ahamiyat kasb etmoqda. Ko'plab kompaniyalar logistika faoliyatini tashqi provayderlarga topshirish orqali o'z bizneslarini optimallashtirmoqda. Ushbu amaliyot xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish imkonini bersa-da, boshqaruv darajasining pasayishi, axborot xavfsizligi va tashqi provayderlarga qaramlik kabi xavflarni ham o'z ichiga oladi [8].


Biznes jarayonlari logistikasi outsorsingi kompaniyalarga katta miqdorda xarajatlarni tejash imkonini beradi. Tashqi provayderlar ko'pincha yirik miqyosda xizmat ko'rsatadi, bu esa iqtisodiy jihatdan foydalidir. Ular muayyan logistika yo'nalishida mutaxassis bo'lib, jarayonlarni tez va arzon bajaradi. Ayniqsa, bu holat kichik va o'rta korxonalar uchun jozibador hisoblanadi, chunki ular o'zlari katta investitsiyalar talab qiladigan logistika infratuzilmasini yaratish imkoniga ega emas (1-rasm).



1-rasm. Logistika axborot tizimining muvofiqlashtiruvchi tarkibiy qismlari¹

¹ https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12740_2_8C3DF8C9FBA2BAD90DEF72237DD93262E7235739.pdf

Biznes jarayonlari logistikasi outsorsingi orqali kompaniyalar o'z faoliyatini strategik ravishda boshqarish imkoniga ega bo'ladi. Agar kompaniya o'zining asosiy faoliyatiga — mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishga — e'tibor qaratgan bo'lsa, logistika jarayonlarini tashqi mutaxassislariga topshirish ularga asosiy ishlar uchun ko'proq vaqt va resurs ajratish imkonini beradi. Bu esa kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Biznes jarayonlari logistikasi outsorsingi bilan bog'liq eng asosiy xavf — bu boshqaruvni tashqi provayderlarga topshirish zaruriyatidir. Bunday hollarda kompaniya o'z logistika jarayonlarini to'liq nazorat qila olmaydi. Bu esa muammolarni tezda aniqlash va samarali hal qilishni qiyinlashtiradi. Tashqi provayderlar bilan ishlashda, ayniqsa, ularga ishonch bildirish va ular bilan samarali kommunikatsiya o'rnatish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar provayderning faoliyati kutilgan darajada bo'lmasa, bu holat kompaniyaning umumiy ish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (2-rasm).



2-rasm. Logistika axborotlar tizimlarining moddiy va axborotlar oqimlarining turlari¹

Internet of Things (*IoT*), blokcheyn va sun'iy intellekt (*SI*) biznes jarayonlari logistikasi outsorsingi jarayonlarini yanada samarali va xavfsiz qilishda muhim rol o'ynaydi. *IoT* qurilmalari orqali kompaniyalar mahsulotlarning real vaqt rejimidagi joylashuvi va holatini kuzatishi mumkin. Blokcheyn texnologiyasi esa ma'lumotlarni xavfsiz va shaffof tarzda saqlash imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar yordamida

¹ https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12740_2_8C3DF8C9FBA2BAD90DEF72237DD93262E7235739.pdf

kompaniyalar o'z logistika jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish nafaqat jarayonlarni tezlashtiradi, balki xarajatlarni kamaytirishga ham xizmat qiladi. SI yordamida kompaniyalar ta'minot zanjirini prognozlash, iste'molchilar talabini aniqlash hamda optimal logistika yo'llarini belgilash imkoniga ega bo'ladi. Ushbu texnologiyalar kompaniyalarni innovatsion yechimlarga olib boradi va biznes jarayonlari logistikasi outsorsingi samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [9].

Biznes jarayonlari logistikasi outsorsingi korxonalariga ta'minot zanjirini yanada moslashuvchan qilish imkonini beradi. Global bozorlar doimiy o'zgarib turadi va kompaniyalar bu o'zgarishlarga tezkor javob bera olishlari talab etiladi. Outsorsing orqali kompaniyalar nafaqat iqtisodiy samaradorlikka erishadi, balki global talab va sharoitlarga moslashish qobiliyatini ham oshiradi.

Biroq, bu moslashuvchanlik ayrim xavf-xatarlarni ham yuzaga keltiradi. Tashqi provayderlar bilan bog'liq o'zgarishlar yoki ularning shartnomalaridagi noaniqliklar logistika jarayonlarining izdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, biznes jarayonlari logistikasi outsorsingi jarayonlariga ommaviy texnologik yangilanishlar joriy qilinishi kompaniyani mavjud eski tizimlar bilan muvofiqlashtirishga majbur qiladi, bu esa yangi tizimlarni integratsiya qilishda qo'shimcha muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Biznes jarayonlari logistikasi outsorsingi kompaniyalar uchun bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Ular jumlasiga xarajatlarni kamaytirish, samaradorlikni oshirish va global bozor talablariga tezkor javob berish imkoniyatlari kiradi. Shu bilan birga, bu jarayonni amalga oshirishda boshqaruv darajasining kamayishi, axborot xavfsizligi muammolari va texnologik integratsiya bilan bog'liq xavf-xatarlar ham mavjud.

Biroq, innovatsion texnologiyalar yordamida ushbu xavflarni minimallashtirish mumkin. Kelajakda biznes jarayonlari logistikasi outsorsingi yanada rivojlanib, kompaniyalarga o'z faoliyatini optimallashtirish hamda global miqyosda raqobatbardosh ishlash imkonini beradi. Ushbu yo'nalishning muvaffaqiyatli rivojlanishi texnologik yondashuvlar va yuqori malakali tashqi provayderlar bilan samarali hamkorlikka bevosita bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabr PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-dekabr PF-5598-son "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-4103415>

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-aprel PQ-4699-son “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-4800657> .

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 11-noyabr PQ-4022-son “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-4071219>.

5. Odilov Sh.G‘. Kompaniya logistik jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirish mexanizmlari. 08.00.14 — Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari ixtisosligi bo‘yicha iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: 2018 yil.

6. Lex.uz — O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

7. Xamidov A.A. Logistika tizimini boshqarish asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti. 2020 y.

8. Karimov U.K. Ta’minot zanjiri boshqaruvi va innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Ilm Ziyo. 2021 y.

9. Sulonov B.R. Outsourcing xizmatlarining milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va rivojlanish istiqbollari. 2022 yil. Ilmiy maqola. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” jurnalining 2-soni, 45-52-betlar.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, iyul, 7-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOST 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**